

IQTISODGA OID TERMINLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI

Yuldosheva Sanam Turayevna

Master of Termiz University of Economics and Service

Annotatsiya: *Ushbu maqolada terminlar , ularning turlari va ahamiyati , iqtisodiyotda tutgan o'rni , tarjimadagi roli, tarjima metod va texnikalari, tarjimadagi muommolari yoritib berilgan. Tadqiqotda asosiy e'tibor iqtisodiy atamalarini ingliz tilidan o'zbek tillariga tarjima qilishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda yuzaga keladigan o'ziga xos xususiyatlar va muammolarni ko'rsatib o'tadi. Taqdim etilgan misollar har bir tilda ma'lum iqtisodiy tushunchalar qanday farq qilishi mumkinligini ko'rsatadi, bu esa to'g'ri tarjima qilish uchun diqqat va lingvistik bilimlarni talab qiladi. Ushbu tafovutlarni o'rganib chiqib, tadqiqot iqtisodiy kontekstda ingliz tilida so'zlashuvchi va o'zbek tilida so'zlashuvchi shaxslar o'rtasidagi tushunish va muloqotni yaxshilashga qaratilgan*

Kalit so'zlar: *termin, metod, tarjima, tarjima texnikalari, semantik tarjima, tarjimadagi muommolar*

Absract:*The terminology, their kinds and significance, their location in the economy, their function in translation, translation methods and procedures, and translation issues are all covered in this page. The study's primary focus is on translating economic words from English to Uzbek, and it illustrates the unique characteristics and issues that come up in this process. The examples given illustrate how different languages can interpret certain economic ideas differently, necessitating attention to detail and linguistic expertise for accurate translation. The study intends to enhance comprehension and communication between Uzbek and English speakers in an economic context by examining these distinctions.*

Key words: *term, method, translation, techniques of translation, semantic translation, problems in translation process.*

Fan va texnika asrida butun dunyo jadallik bilan rivojlanib borayotgan bir davrda , ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida iqtisodiy , siyosiy jihatdan o'zgarishlar , yangiliklar sodir bo'lmoqda. Bu jarayon tilimizning yanada boyishiga, yangidan yangi neologizmlar , terminlar , tushunchalarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Dastavval biz terminlar va ularning yasalish usullari , iqtisodiy munosabatlarda ularning ahamiyati to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Termin tushunchasi dastlab 13 asrda qo'llanila boshlangan va lotincha "terminus" so'zidan olingan bo'lib, "chegara , had " degan ma'noni bildiradi. Terminologiyaning birligi hisoblanib, ma'lum bir tushunchani ifodalaydi. Fanda ilmiy tushuncha haqidagi aniq ma'lumot tashuvchi birlik hisoblanadi. Terminologiya esa tilshunoslikning terminlar tizimini o'rganuvchi sohasi bo'lib, ma'lum bir so'zning barcha ma'no variantlarini yoki muayyan sohaga doir bo'lgan maxsus leksikalarni o'rganadi. Iqtisodiy hujjatlar va matnlarni tayyorlashda biz iqtisodiy terminlar , birikmalar va qisqartmalardan foydalanamiz.. Iqtisodiy matnlar og'zaki iqtisodiy diskursiv faoliyatning yozma shakli sifatida o'zida iqtisodiy bilimlarni saqlab , uzatadi. Matnlarimiz nafaqat oddiy xalqqa, balkim sohani ilmiy jihatdan yaxshi tushungan soha mutaxassislariga qaratilgan bo'ladi. Iqtisodiy matnlarimizning o'ziga

xosligi ma'lumotlarning tezligi, iqtisodiy munozaralarda oqilona fikrlay olish qobiyati va unda samarali metodlardan foydalana olish va iqtisodiy jarayonlarni oldindan ko'ra olishimizda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari iqtisodiy matn va kelishuvlarimizlarda iqtisodiy birliklar terminlar va qisqartmalardan ,shuning bilan bir qatorda qat'iy struktura va qoliplardan foydalaniladi .Shu sababdan ham iqtisodiy va moliyaviy matnlarni tarjima qilish uchun biz ham xorijiy tillarni ham iqtisodiyot sohasini chuqur bilishimiz kerak bo'ladi . Misol uchun biz ingliz tilidan biror bir iqtisodiy matnni tarjima qiladigan bo'lsak ,ham Britaniya iqtisodiy tizimini, ham O'zbekiston iqtisodiy tizimini chuqur bilishimiz ularni taqqoslab, farqli va o'xshash jihatlarini ajrata olishimiz kerak bo'ladi.

Tarjima qilayotgan tilimizdagi terminlarning aniq va mos ekvivalentlarini tanlay olishimiz juda muhim hisoblanadi. Matnning tarjimasi obyektiv bo'lishi talab qilinadi. Matnni boshqa tilga moslashtira olish ham muhim. Imkon darajasida muayyan bir til qoidalarini aks ettira oladigan semantic strukturalarni tanlashimiz kerak. Terminlarimiz tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. sodda terminlar
2. qo'shma terminlar
3. birikma va murakkab terminlar

Sodda terminlarimizning o'zi sodda tub va sodda yasama terminlarga bo'linadi. Sodda tub terminlarimiz faqat bir asosdan tashkil topadi ,hech qanday so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilmaydi(bank, birja, fond ,ish).Sodda yasama terminlarimiz tub terminlarga biror bir yasovchi affiksning qo'shilishidan hosil bo'ladi(iste'molchi, tadbirkor,so'rovnoma ,bojxona). Qo'shma terminlar ikki va undan ortiq soda terminlarning birikuvidan hosil bo'lgan terminlar. Qo'shma terminlar ham qo'shma so'zlar singari o'z qatlam so'zlaridan ,boshqa til materiallaridan hamda har ikkala manbaning o'zaro qo'shilishidan yasaladi.O'zbek tili materiallari asosida yuzaga kelgan qo'shma terminlar asosan umumiste'moldagi qo'shma so'zlarning ilmiy termin yoki nomen sifatida terminalogik tizimlarga qabul qilinishi mahsulidir.Bunda terminlarning konkret tushunchalar bilan birikishi natijasida frazeologik terminlar paydo bo'lgan. Termin dastlabki ma'nosi bilan mos tushishi uchun umumiy tushuncha sifatida olinishi kerak bo'ladi.Yani siz uni alohida termin sifatida foydalansangiz ham, frazeologik birlik sifatida ishlatsangiz ham ma'nosi o'zgarmasligi kerak. Shunday qilib bu terminologik birlik frazeologik birlik tarkibida ishlatilganida bir so'zning bir nechta variantlari sifatida qaralashi kerak. Misol uchun ingliz tilidagi " soliq" terminini olaylik ,,"soliq, boj ,badal,a'zolik badallari ,yuk , o'lchov, hisob to'lovlari,narx,qoralov, ayblov " ma'nolarini bildiradi va shuning bilan birga soliq to'lovi mohiyatini tartibga soladigan ko'plab terminlar uchun asos bo'lib hizmat qiladi :qo'shilgan qiymat solig'i , yer solig'i ,xarajatlar solig'i, daromad solig'i, mol-mulk solig'i.Murakkab qo'shma so'zli terminlarning asosini tashkil qiladigan o'tli birikmalar lug'atlarda berilgan birliklarga tengdir. Terminalogik birikmalarimiz sifat bilan otning birikuvidan yoki ikkita o'tni predlog bilan bog'lashidan hosil bo'lishi mumkin: accounting convention, building of competences , utilization of loses . Ko'p morfemali murakkab qo'shma so'zlarni tarjima qilish biroz qiyinroq.Dastlab terminning yaxlit holatdagi ma'nosini o'rganadigan bo'lsak ,so'ngra tarkibidagi har bitta so'zning ma'nosini , ularning o'zaro aloqalarini o'rganamiz.Bunda kontekst ham muhim rol

o'ynaydi. Shunday qilib o'rgangan ma'lumotlarimizga asoslanib biz terminlar haqida quyidagi xulosalarga keldik:

1. termin inson faoliyatining ma'lum bir sohasini bildiruvchi semantik yaxlitlikning bir qismi bo'lib, kontekstga mos tushishi kerak;
2. terminlar quyidagi semantik xususiyatlarga ega bo'lishi kerak: tizimlilik, aniqlilik, kontekstdan tashqarida nisbiy erkinlik, qisqalik, lo'ndalik, hissiy betaraflik, mantiqiylik;
3. terminga qo'yiladigan asosiy talab uning konkretligidir.

Iqtisodiy terminlarning tarjimasiga to'xtalib o'tganimizda avvalo biz tarjima aslida qanday jarayon, iqtisodiy terminlarda uning zarurati nimada, tarjima turlari va undagi muommolar to'g'risida suhbatlashsak. Tarjima bu bir tildagi ma'lumot, nutq, matnlarni ikkinchi tilga mazmunini saqlagan holda o'girish jarayoni hisoblanadi. Iqtisodiyotda tarjimaning zaruriyati moliyaviy-iqtisodiy hujjatlar matni mazmunini to'g'ri tushunish va bu bilan iqtisodiy yo'qotishlarning oldini olish, yangi iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, innovatsion iqtisodiy dasturlarni oson o'zlashtirishda ko'rinadi. Peter Nyumark o'zining "Textbook of translation" asarida tarjima metodlari butun bir matnga va tarjima jarayonida foydalanilgan boshqa til birliklariga bog'liq ekanligini ta'kidlab, tarjimaning quyidagi metodlarini sanab o'tadi:

1. So'zma –so'z tarjima: manba tilidagi har bitta so'zni maqsadli tilga to'g'ridan to'g'ri tarjima qiluvchi adabiy uslub. Bu turdagi tarjimada so'zlarning kontekstda keltirilgan mazmuni emas umumiy ma'nosi olinadi. Bunday tarjimadan haqiqiy tarjima jarayonida emas faqatgina dastlabki tarjima sifatida foydalansa bo'ladi. Sababi bu metod tarjima jarayonida ikki til o'rtasidagi grammatik, so'z tartibi, kontekstdagi farqlarni hisobga olmasdan so'zning ma'nolarini cheklab qo'yadi asosan manba tili imkoniyatlarini hisobga oladi. Natijada maqsadli tilda tarjima o'z mazmunini yo'qotadi. Shuningdek, tilning uslubiy bo'yoqdorligini aks ettiruvchi metafora singari jihatlarini hisobga olmaydi va maqsadli tildagi mos ekvivalentlarini qo'llay olmaydi.

2. Adabiy tarjima: So'zma so'z tarjimaga o'xshaydi, ammo idiomali birikmalar va madaniy farqlarni hisobga olgan holda ba'zi o'zgartirishlarni o'z ichiga oladi. Ikkala tildagi grammatik strukturalarga e'tibor beradi. Faqatgina konotativ ma'noni hisobga olmaydi ammo metaforali ekvivalentlari to'g'ri qo'llay oladi.

3. Ishonchli tarjima: Manba tilidagi matnga yaqin mazmundagi tarjima turi xisoblanib, mo'ljallangan ma'no va maqsadlarni yetkazib beradi. Ishonchli tarjimada kontekstdagi asosiy mazmunini yetkazib berish uchun maqsadli tilning grammatik strukturasidagi cheklovlar doirasida ish olib boradi, grammatik va leksik xususiyatlarni hisobga oladi.

4. Semantik tarjima: Bu tarjima turida alohida so'zlar tarjimasidan ko'ra matn mazmuniga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bu usulda tarjima aniq, sillik, qisqa va lo'nda bo'ladi, ishonchli tarjima metodidan o'ziga xosligi va manba tilining madaniy estetik jihatlarini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Asosiy e'tiborini kontekstga qaratadi va o'zining kreativligi va moslashuvchanligi va istisnolari bilan yozuvchiga imkoniyatlar yaratadi.

5. Kommunikativ tarjima: kommunikativ tarjima turi madaniy va lingvistik farqlarni hisobga olib, matnning asosiy maqsadini auditoriyaga aniq va oson tushuniladigan qilib yetkazib berishga harakat qiladi. Maqol va matallar tarjimasida qo'l keladi.

6. Moslashuv: bu tarjima turida maqsadli tildagi o'quvchiga yanayam tushunarli bo'lishi uchun manba matniga jiddiy o'zgartirishlar kiritiladi. Matn maqsadli til qoidalariga moslab qayta yoziladi. She'rlar, pyessalar yozish uchun juda qulay metod.

7. Erkin tarjima metodi: bu metod asl ma'noni saqlab qolib, maqsadli tilning tabiiy til

Tarjima texnikasi bu manba matni tilidagi ma'lumotlarni maqsadli tilga yetkazishda tarjimon tomonidan foydalaniladigan usul. Ko'plab tarjima texnikalari mavjud:

1. To'g'ridan- to'g'ri tarjima: bu turdagi adabiy tarjimada matn maqsadli tilga hech qanday o'zgartirish va qo'shimchalarsiz tarjima qilinadi.

2. Transpositsiya usulida gapning mazmuni saqlab qolinib grammatik tuzilishi o'zgaradi

3. Modulyatsiya: ma'noni saqlagan holda nuqtai nazarni o'zgartirib tarjima qilish uslubi

4. Ekvivalentlik: maqsadli tilda manba tiliga mos so'z va iboralarni qo'llagan holda tarjima qilish uslubi

5. Moslashtirish: idiomalar, argon, jargon, shevalarni maqsadli tilga moslashtirish uslubi.

6. Kompensatsiya: tarjima vaqtida yo'qolgan ma'lumotlarni qo'shimcha ma'lumot yoki kontekst qo'shish orqali qoplash.

7. Mahalliyashtirish: tarjimoni mahalliy urf-odatlar, shevalar va madaniy me'yorlarga moslashtirish usuli. O'quvchiga yanayam tushunarliroq bo'lishi uchun mintaqaga xos bo'lgan iqtisodiy terminlardan foydalaniladi.

Ushbu tarjima texnikalarining bari turli tillar va madaniyatlar bo'ylab iqtisodiy tushunchalarni to'g'ri yetkazishda juda muhimdir.

Bugungi kunga kelib lingvistik tarjima sohasidagi muommolar yangi bosqichga ko'tarildi. Ikkala tilda semantic moslik yaratish tarjimondan og'ir ijodiy mehnatni talab qiladi. Iqtisodiy matnlarni tarjima qilish og'ir vazifa, tarjimon maqsadli tildagi o'quvchiga matn tushunarli bo'lishi uchun to'g'ri leksik tanlov qila bilishi kerak. Olimlarning fikriga ko'ra globallashtirish xalqaro iqtisodiy va biznes faoliyati keskin o'sishga sabab bo'ldi, bu esa iqtisodiy tarjimaga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishni yil sayin oshirib bormoqda. Bunda metforik va stilistik bo'yoqdorlik jihatiga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Iqtisodiy terminologiya sohasidagi ba'zi leksemalar hayvon nomlari va inson tana azolari nomlaridan olingan, lekin umuman boshqa ma'noni anglatadi. Ular badiiy asarning tasirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Masalan iqtisodiyotda "bull" va "bear" terminlari ingliz tilida bozor munosabatlarini tasvirlashda ishlatilsa, o'zbek tilida xayvon nomlarini bildiradi. Iqtisodiy termin sifatida bull market rivojlanib borayotgan iqtisodiy aylanmasi yuqori bo'lgan bozor. Uning qimmatbaho qog'ozlari juda yuqori baholanadi va investorlar katta foyda olish uchun investitsiya kiritadi. "bear market" bull market terminining butunlay teskarisi hisoblanib, investitsiyaning pasayishi va narxlardagi keskin tushushni tavsiflaydi. Pessimistik ruh

hukmron bo'lib ,ishsizlik darajasi ortadi va iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi kuzatiladi. Bu davrda narxlar o'zgaruvchanligi tufayli investorlar mablag'larini naqd holda ushlab turishga harakat qiladi. "Cash cow" termini to'gridan to'g'ri tarjimada sog'in sigir ma'nosini beradi o'zbek tilida, ammo biznesda kam daromad ma'nosini beradi. "Invisible hand" metaforasi to'g'ridan to'g'ri tarjimada "ko'rinmas qo'l" ma'nosini bildiradi, iqtisodiyotda esa erkin bozor munosabatlariga o'tishdagi qudrat ma'nosini beradi. Bu ibora dastlab shotland iqtisodchisi Adam Smit tomonidan qo'llanilgan bo'lib, uning nazariyasiga ko'ra talab va taklifni ifodalaydi. "Vulture fund" termini mablag'larni solishtirishda foydalaniladigan metofora bo'lib, moliyaviy taqchillik vaqtida qarzdorlardan iqtisodiy daromadga erishish uchun chegirma bilan qarz olishni bildiradi. "Watchdog" termini esa kompaniyalar noqonuniy faoliyat olib boryaptimi yo'qmi shuni tekshiruvchi shaxs yoki jamoaga nisbatan ishlatiladi. Tarjima muommolariga duch kelganimizda ingliz va o'zbek tillarida chuqur bilimga ega bo'lishimiz talab qilinadi. Ma'noni to'g'ri yetkaza olishi uchun tarjimon iqtisodiy tushuncha va terminlarning konkret ma'nosini bilishi va turli hujjat va materiallarda izchil qo'llay olishi kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR:

1. Т.Г.Попов, Н.В.Таратянова . Экономический текст и его лексические особенности (2005)
2. Peter Newmark. A Textbook of Translation ."Prentice Hall International".1988. 81 page
3. Jumanbetova Gulziba Ko'ngratbayevna. Translation problems of economic terms from English into uzbek.EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. Volume :9 /Issue .2023 p.220.
4. Ahmedov O.S . Ingliz va o'zbek tillaridagi soliq – bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muommolari. T. 185 b.
5. www.ziyonet. Uz.